

**MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI
LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)GA GURUH RAHBARI
LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E'LON QILADI**

LAVOZIM MAJBURIYATLARI

1. Loyiha doirasidagi belgilangan barcha tadbirlarni kelishilgan ish dasturga va belgilangan tartib-taomillarga muvofiq umumiy amaliy bajarilishi tashkil etish va boshqarish.
2. Loyiha tashabbuskori tomonidan loyiha doirasida XMI (Xalqaro moliya instituti) bilan o‘zaro aloqalarni olib borishni muvofiqlashtirish.
3. Loyihaning barcha ishtirokchilari (vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tarmoq organlari va birlashmalari, ishtirokchi banklar va boshqalar) bilan ish munosabatlarini tashkil qilish.
4. Moliyaviy bitim talablariga, XMI tartib-taomillariga va loyiha hisobotiga qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq loyiha natijalari bo‘yicha bat afsil hisobotlarni taqdim etish. Muntazam ravishda hamda alohida so‘rovlari bo‘yicha loyiha tashabbuskoriga hisobotlarni taqdim etish.
5. Loyihaning maqsadlariga erishishga qaratilgan siyosat, strategiya va maqsadlarni belgilashda loyiha tashabbuskoriga amaliy yordam ko‘rsatish, takliflarni ishlab chiqish.
6. XMI talablariga muvofiq belgilangan tovarlar va xizmatlar xaridlarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta’minalash bo‘yicha tegishli ishlarni bajarilishini tashkil etish.
7. Loyiha doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish holatini, moliyaviy menejment, mablag‘larni o‘zlashtirish va xaridlar tizimining bajarilishini muntazam monitoringini ta’minalash, amalga oshirish rejalarini va jadvallarini, operativ ko‘rsatmalarni, o‘zlashtirish prognozlarini ishlab chiqish, ularni o‘z vaqtida samarali amalga oshirilishi ta’minalishini tashkil qilish va zarurat tug‘ilganda o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.
8. Loyiha bosh hisobchisi va boshqa tegishli mutaxassislari bilan kelishilgan holda budjet xarajatlarini nazorat qilish, mablag‘larni o‘zlashtirish bo‘yicha so‘rovlarni ko‘rib chiqish, yillik budjetni tayyorlash va ularni loyiha tashabbuskoriga taqdim etish.
9. Loyiha tashabbuskoriga XMI talablariga muvofiq LAOGga xodimlarni yollashda ko‘maklashish.
10. Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun takliflar ishlab chiqish va loyiha tashabbuskoriga taqdim etish.
11. LAOGda ishlaydigan barcha xodimlarni boshqarish, xodimlarni ishga qabul qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilish tartibini ishlab chiqish va xodimlarni ishga qabul qilish yuzasidan loyiha tashabbuskoriga takliflar berish.

QO‘YILADIGAN TALABLAR

Iqtisodiyot, moliya, menejment yoki injiniring yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotga ega va tegishli sohada kamida 5 yillik tajribaga ega bo‘lishi, shundan 3 yillik boshqaruv sohasidagi tashkiliy ish tajribasi, xodimlarni boshqarish va jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Yuqori analitik qobiliyat va boshqaruv qobiliyatlari bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq sohada tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarga ustunlik beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari bilan muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.

Xalqaro moliya institatlari bilan o‘zaro hamkorlik tajribasiga, shuningdek, xalqaro yoki boshqa yirik loyihami amalga oshirish tajribasiga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.

Xalqaro tashkilotlar tartib-taomillari bo'yicha bilim va tajribaga ustunlik beriladi.

Ingliz va rus tillarini yozma va og'zaki so'zlash, shuningdek, kompyuterda ishlash qobiliyati talab qilinadi.

ISH SHAROITLARI

Ish kunlari: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

Ish vaqtি: 09:00 dan 18:00 gacha

Ish joyi: Toshkent shahri

TASHKILOT TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Manzil: O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko'chasi 1-uy, 10-qavat.

Telefon raqam: +998712386933

Elektron manzil: fcd.agency@mineconomy.uz va sredp.ade@gmail.com

Qo'shimcha ma'lumot: LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

Ma'lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo'lgan lavozimni aniq ko'rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so'raymiz.